



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari
o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha
qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi
PQ-53-son qarori ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori ijrosini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining xorijiy tillar va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil “hayot yo‘li”ni tanlashlariga ko‘maklashish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘quvchilarni xorijiy til va kasb-hunarga o‘qitish amaliyotini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev):

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinov tariqasida, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflarida tayanch o‘quv rejasi asosida o‘qitish bilan bir qatorda “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” hamda “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish choralari ko‘rsin.

4. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning quyidagi tartibini joriy etsin:

5-9-sinflarda xorijiy tilga o'qitish intensivligini oshirish orqali o'quvchilarda bazaviy bilim va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish;

10-11-sinflarda xorijiy tilni o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarning akademik yozuv va so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirish;

“Fanlarni chuqurlashtirib o'qitish” yo'nalishi doirasida xorijiy til fanini tanlagan o'quvchilarni 10-11-sinflarda ikkinchi xorijiy tilga o'qitish.

5. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2024-yil 1-mayga qadar mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xorijiy til fani bo'yicha o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish choralari ko'rsin.

Bunda, o'quvchilar tomonidan 11-sinfda ikkinchi xorijiy tilning kamida A2 darajada o'zlashtirilishini nazarda tutsin.

6. O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi (J.Mannonov) 2024-yil 25-avgustga qadar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratiladigan Davlat byudjeti mablag'lari doirasida xorijiy tilni o'qitish bo'yicha xalqaro nashriyotlar darsliklarini xarid qilish va mahalliyashtirish choralari ko'rsin.

7. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova) 2024-yil davomida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy va yapon tillari bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb etsin.

8. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Ismailov) 2024-yil 1-aprelga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xorijiy til o'qituvchilari bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazsin hamda zamonaviy ta'lim metodikalar asosida ularning malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etsin.

9. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova) 2024-2025-o'quv yilidan boshlab, xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha pedagoglarni tayyorlaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarining umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotini yo'lga qo'ysin.

10. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi (A.Mamadaliyev) 2024-2025-o'quv yilidan boshlab “Biznes va kasb-hunarga o'qitish” yo'nalishi doirasida o'quvchilarni Milliy malakalar ramkasining 2-darajasiga mos bo'lgan quyidagi yo'nalishlardan biri bo'yicha kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish choralari ko'rsin:

birinchi yo‘nalish – tadbirkorlik subyektlari va hunarmandlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb qilish orqali o‘quvchilarni ishchi kasblarga;

ikkinchi yo‘nalish – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan kurslarda o‘quvchilarni axborot texnologiyalariga oid zamonaviy kasblarga o‘qitish.

11. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov):

kasb-hunarga o‘rgatish joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida oliy ma’lumotli umumta’lim maktabi o‘qituvchisiga tenglashtirilgan “Kasbiy ta’lim ustasi” lavozimini joriy etsin;

bir oy muddatda “Kasbiy ta’lim ustasi” lavozimining shtat birliklari, malaka talablari, lavozim majburiyatlarini tasdiqlasin.

12. Ta’lim tashkilotlari mulkidan samarali foydalanish bo‘limi (D.G‘aniyev) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh binolarini “20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchilariga amaliy monomarkazni tashkil qilish va keyinchalik o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida tekin foydalanishga berish choralari ko‘rsin.

13. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), Moliya-iqtisod departamenti direktori (I.Siradjev), Ta’lim muassasalarini moddiy ta’minlash bo‘limi (B.Ayubov) uch oy muddatda kasb-hunarga o‘rgatish joriy etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ro‘yxatini shakllantirsin, kasbiy ta’lim ustaxonalari va mavjud jihozlarini xatlovdan o‘tkazsin, zarur jihozlar ro‘yxatini tayyorlasin hamda talab etiladigan mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblarni shakllantirib, takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kirit sin.

14. Moliya-iqtisod departamenti direktori (I.Siradjev) O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga qo‘shimcha ajratiladigan mablag‘lar hisobidan kasbiy ta’lim ustalari mehnatiga haq to‘lash hamda taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan ustaxonalarni yirik jihozlar (kompyuter texnikasi, elektron doska, tikuv mashinasi va hokazo) bilan ta’minlash uchun zarur mablag‘lar ajratsin.

15. Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov) mavjud ustaxonalarni joriy ta’mirlash, zarur hollarda yengil tipdagi ustaxonalarni qurish hamda ular uchun kichik asbob-uskunalar xarid qilish yuzasidan takliflar tayyorlasin.

16. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I.Xoliqulov), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tegishli takliflar asosida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ustaxonalarni joriy ta’mirlash, zarur hollarda yengil tipdagi ustaxonalarni qurish hamda ular uchun kichik asbob-uskunalar xarid qilish choralari ko‘rsin.

17. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari hududiy davlat hokimiyatlari bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari mablag‘lari hisobidan kasb-hunarga o‘qitishda talab etiladigan zarur xomashyo materiallarini xarid qilish, “Kasbiy ta’lim ustasi” lavozimini mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash choralari ko‘rsin.

18. O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2024-yil 1-aprelga qadar o‘quv jarayoni “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yoki “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun amaldagi tayanch o‘quv rejasi doirasida moslashuvchan o‘quv rejani ishlab chiqsin va tasdiqlashga kiritsin.

19. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2025-yil 1-iyulga qadar tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqib, “Fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish” yoki “Biznes va kasb-hunarga o‘qitish” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish amaliyotini boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga tatbiq etish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

20. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev)ga:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan kasb-hunarlarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini jalb etish vazifalari yuklatilsin.

21. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), Ta’lim tashkilotlari mulkidan samarali foydalanish bo‘limi (D.G‘aniyev), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), Yuridik boshqarma (X.Asrorov)ga 2024-yil 25-mayga qadar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlari hamkorligini tartibga solish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin.

22. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), Yuridik boshqarma (X.Asrorov)ga 2024-yil 25-mayga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

23. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni xorijiy til va kasb-hunarga o‘qitish ishlarini samarali tashkil etishda shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

24. Devonxona (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tarkibiy bo'linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda muassasalarga yetkazilishini ta'minlasin.

25. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U. Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil "4"- mart,
68 – son